

ONA TILI DARSLARIDA GAP BO'LAKLARINI O'QITISHDA TAQQOSLASH VA VIZUAL METODLARNING SAMARADORLIGI

Usmonova Laylo Isroil qizi

TOSHD O'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi

Yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Usmonovalaylo003@gmail.com

Tel: +998941626299

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilar uchun murakkab hisoblangan gap bo'laklarini o'qitish jarayonidagi muammolar yoritiladi. Gap bo'laklarini o'zlashtirishda an'anaviy metodlarning yetarli samara bermasligi tahlil qilinib, ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida "Rang-savol-harakat" vizual-interaktiv metodikasi hamda "Minimal juftlik" taqqoslash metodikasi taklif etiladi. Mazkur metodikalar asosida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Taklif etilgan metodikalar o'quvchilarning gap bo'laklarini ongli va tizimli o'zlashtirishlariga, shuningdek, ularning mantiqiy hamda tahliliy fikirlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ona tili darslarida vizual-interaktiv va taqqoslashga asoslangan yondashuvlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajda oshirishini ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar : ona tili metodikasi, gap bo'laklari, vizual metod, taqqoslash metodi, interaktiv yondashuv.

Kirish. Yurtimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy qadryatlarimizni, xususan, ona tilimizni o'rganishni ilmiy-nazariy va amaliy tomondan tadqiq etishga bo'lgan e'tibor yildan yilga kuchayib bormoqda. Muhtaram birinchi prezidentimiz aytib o'tganlaridek: -Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.⁶¹ Yuqorida keltirilgan fikrdan kelib chiqqan holda biz nafaqat o'zbek tilining fan yutuqlarini ta'kidlabgina qolmasdan, balki tilshunos olimlar e'tiborida bo'lib kelayotgan gap bo'laklari mavzusi, ularni o'qitish jarayonidagi muammolar masalasini e'tibordan

⁶¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch- T: Ma'naviyat, 2008. B-61

chetda qoldirmasligiz lozim. Ushbu mavzuga oid boy ilmiy manbalar yaratilgan bo'lsa-da, gap bo'laklarini o'rgatishda an'anaviy metodlarning yetarlicha samara bermasligi o'z navbatida o'qitish tizimida ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinishga sabab bo'lmoqda. Shuningdek ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, davlat ta'lim standartlariga qo'yilayotgan talablar ta'limning barcha bo'g'inlarini qaytadan ko'rib chiqishni talab qilmoqda va fan o'qitishda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu holat esa gap bo'laklari mavzusini o'qitishda ham yangidan yangi usul va metodlarni taqazo etmoqda. Bular esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Gap bo'laklarini o'qitish bo'yicha metodik adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari yaratilgan bo'lsada ushbu mavzuni zamonaviy pedagogik metodlar yordamida o'rgatish borasida yetarli ilmiy tadqiqotlar mavjud emas. Gap bo'laklari tushunchasini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish esa taqiqotimizning maqsadidir. Ona tili ta'limida sintaksis bo'limi, xususan, gap bo'laklarini o'qitish o'qituvchilardan mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini talab etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ega va kesimni, aniqlovchi va holni farqlashda, shuningdek, gap bo'laklarini savol asosida aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat ko'pincha an'anaviy, qoida markazli o'qitish metodlari bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarning faolligini yetarli darajada ta'minlamaydi. Shu sababli ona tili darslarida gap bo'laklarini o'qitishda zamonaviy, interaktiv, vizual va taqqoslashga asoslangan metodlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, gap bo'laklari mavzusida ko'plab olimlarimiz ish olib borishgan. Ulardan G. Abdurahmonov, X. Abdurahmonov, Sh. Iskandarova, T.Yusupova hamda H.Ne'matov kabi olimlarning ishlarini, shuningdek, ko'pgina turli yillarda nashr qilingan – Hozirgi o'zbek adabiy tili kitoblarini misol qilishimiz mumkin⁶². Shuningdek, ona tilidagi yangi ma'lumotlarni ommaga tatbiq etuvchi "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining turli yildagi sonlaridagi ilmiy maqollarni keltirish mumkin. Masalan, M. Ochilova, M. Qurbonova, H. Shokirovalarning ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.

Fan sohasida yangidan yangi ma'lumotlar ko'plab uchrab turadi va shu yangiliklar asosida darslarni tashkil etamiz. Hozirgi zamonaviy darslar yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Bu, albatta, o'quvchiga yangi ma'lumotni tez va oson yetkazishi mumkin. Va dars jarayonida vaqtadan unumli foydalanish ham e'tiborga olingan. Negaki innavatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib boriladigan dars sifatli va oson tushuniladi. Bunda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib bilimni qabul qiladi. O'quvchiga tushuntiriladigan mavzu, albatta, nazariy jihatdan isbotlangan bo'lishi lozim. Agarda biror ilmiy adabiyotga asoslanmasdan, biror mavzu yuzasidan ma'lumot

⁶² Qodirov M., Nematov H., Abdurahmonova M., Sayfullayeva R. ona tili 8-sinlar uchun darslik.- T.: Cho'lpon, 2010.

berilsa, mavzuda xatoliklar paydo bo‘ladi, mashqlarni bajarishda ketma-ket xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Aslida gap bo‘laklari nima? -Gap tarkibida ma'lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so‘z yoki so‘z birikmalari gap bo‘laklaridir. Masalan, gap tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini nazarda tutsak, gapga tegishli yangi nazariy qoidalar ham kelib chiqadi. Shunday ekan, avvalo, gap bo‘laklari haqida to‘liq ma'lumotga ega bo‘lish muhim. Gap bo‘laklarini aniqlashda, asosan, ularning so‘z turkumligi nisbiy me‘zon qilib olingan. Ammo gap bo‘laklarining belgilanishida asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So‘zlarga so‘roq berish ularning qaysi turkumga mansubligi gap ichida joylashish tartibi, qanday qo‘shimchalar olishi tom ma'noda gap bo‘laklarining turlarini belgilashda asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklari murakkab shakliy va mazmuniy tuzilishga ega ekanligini professor A.Nurmonov alohida ta'kidlagan holda: -Har qanday gap bo‘lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama-qarshiligi va birligidan iborat, – deydi.⁶³

Gap bo‘laklarini o‘qitishda uchraydigan asosiy muammolar.

O‘quvchilar quyidagi holatlarda ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadilar:

- gap bo‘laklarini quruq qoida asosida yodlash;
- savol berish orqali aniqlash ko‘nikmasining shakllanmaganligi;
- gapdagi so‘zlarning vazifasini tushunmaslik;
- o‘xshash bo‘laklarni bir-biri bilan aralashtirish. Mazkur muammolarni bartaraf etishda

vizual va taqqoslash metodlari samarali vosita bo‘la oladi.

Asosiy metodika: “Rang–savol–harakat” metodikasi.

Metodikaning mohiyati “Rang–savol–harakat” metodikasi gap bo‘laklarini o‘qitishda ko‘rgazmalilik, savol berish va harakat orqali mustahkamlash tamoyillariga asoslanadi. Mazkur metodni uch bosqichda amalga oshiramiz:

1-bosqich. Rangli vizualizatsiya

Gap taxtaga yoziladi va har bir gap bo‘lagi rang bilan belgilanadi:

ega – ko‘k,

kesim – qizil,

to‘ldiruvchi – yashil,

aniqlovchi – sariq,

hol – binafsha.

2-bosqich. Savol asosida aniqlash

⁶³ Mahmudov N., Nurmonov A., O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - T.: O‘qituvchi, 1995. B-60

O'quvchilar har bir so'zga mos savol berib, uning gapdagi vazifasini aniqlaydilar.

3-bosqich. Harakat orqali mustahkamlash

Rangli kartochkalar yordamida o'quvchilar gap bo'lagini topib, mos rangni ko'taradilar yoki belgilar qo'yadilar.

Metodikaning afzalliklari: o'quvchilarning darsdagi faolligi oshadi, mavzu oson va esda qolarli bo'ladi, bilim amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi.

Keyingi metodimiz "Minimal juftlik" (taqqoslash) metodikasi.

Mazkur metodika o'xshash gaplarni taqqoslash orqali gap bo'laklarini aniqlashga asoslanadi.

Metodik jarayon

O'quvchilarga mazmunan yaqin, ammo tarkibida farqli gap bo'lagi mavjud bo'lgan ikki gap beriladi:

1. O'quvchi kitobni o'qidi.

2. O'quvchi kitobni tez o'qidi.

O'quvchilar gaplarni qiyoslab, qaysi so'z qo'shilganini va uning qaysi gap bo'lagi ekanini aniqlaydilar.

Metodikaning afzalliklari: tahliliy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi, gap bo'laklari orasidagi farq aniq anglanadi, xatolar soni kamayadi.

Qiyosiy tahlil: An'anaviy va yangi metodlar.

Mezon	An'anaviy usul	Yangi metodlar
o'quvchi faolligi	past	yuqori
o'zlashtirish	quruq yodlash	ongli va amaliy
vizual vositalar	deyarli yo'q	mavjud
mustaqil fikirlash	cheklangan	rivojlangan

Alohida ta'kidlash joizki, dars jarayonlarida yuqoridagi metodlardan foydalansak, **o'quvchilar qoida yodlashlari shart bo'lmaydi**, aksincha vizual vositalar yordamida o'zi bilmagan holda o'tilgan mavzuni yod olishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida gap bo'laklarini o'qitishda "Rang-savol-harakat" hamda "Minimal juftlik" metodikalarini qo'llash o'quvchilarning mavzuni ongli va mustahkam o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar faolligi oshadi, xatolar kamayadi va dars jarayoni samaradorligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch- T: Ma’naviyat, 2008. B-61.
2. Qodirov M., Nematov H., Abdurahmonova M., Sayfullayeva R. ona tili 8-sinflar uchun darslik.- T.: Cho‘lpon, 2010.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.- T.: O‘qituvchi, 1995. B-60.
4. Abdullayeva M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish texnologiyalarini loyhalashtirish. Ma’ruzalar matni.- T, 2017.
5. Abdusamatov R.A. O‘zbek tilida gap bo‘laklarining noamaliy mavqeyi masalasi. – Samarqand, 1995.
6. Bobokalonov R, Ne‘matova G. Ona tili o‘qitishning yangi texnologiyasi haqida.- T, 1998.
7. Eshonqulova M. Sodda gap shaklining uyishiq bo‘laklar yordamida kengayishi.- Qarshi, 2016.
8. G‘ulomov A. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2002.